
4-SEKTOR FAOLIYATIDAN

Qo'shtepa tumani Davlat soliq inspeksiyasi boshlixi, 4-sektor rahbari Z.Mirzayev Xo'jaqishloq mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib, aholining suv muammosini o'rgandi. Ushbu muammo mutasaddi idora xodimlari ishtirokida to'liq bartaraf etildi. Ichimlik suvi nasosi o'rnatilib, aholiga ichimlik suvi yetkazib berildi.



Sektor rahbari hududda olib borilayotgan qishloq xo'jaligi ishlari bilan ham tanishdi. 2021 yil hosili uchun rejalashtirilgan boshoqli don ekish va shudgorlash ishlarini jadallashtirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-11-07 12:11:21